



TALABALAR UCHUN SHAROITLAR

Talaba-yoshlarning axloqiy tarbiyasi, jamoat ishlaridagi faolligi, yashash sharoitlarini yaxshilash muhim bosqich hisoblanadi. O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida talabalar turar joyi yoshlari uchun zarur qulayliklar tashkil etilmoqda. Intsitut rektori, professor **Ibrohim Yuldashev** tashabbusi bilan yotoqxonalar yangidan ta'mirlanib, kerakli jihozlar, hududdagi kutubxonaga zamonaviy kompyuterlar o'rnatildi. Talabalar uchun turli kiyim va kitob jovonlari sotib olinib, oshxona buyumlari va yuvinish anjomlari bilan to'liq ta'minlandi.



Institutning Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi boshlig'i Zulxumor Narqo'ziyeva boshchiligida yotoqxonada yashovchi talabalar bilan axloqiy meyorlar, oliy ta'lim muassasasida kiyinish madaniyati, mahorat darslariga qatnashish, ichki tartib-intizomga rioya etish hamda kitobxonlik yuzasidan suhbatlar o'tkazildi.



Shuningdek, turar joy bilan bog‘liq turli masalalar ham ko‘tarilib, muammoli vaziyatlarga choralar ko‘rildi. Institut talabalar turar joyida yashovchi yoshlar asosan viloyatliklar bo‘lib, ularning sharoitini yaxshilash, moddiy va ma‘naviy qo‘llab-quvvatlash borasida ham ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda. Oliy ta‘lim muassasasi – talabalarning ikkinchi uyi, uni ham obod saqlash, asrab-avaylash yelkadagi mas‘uliyatli burchdir.

Dostonbek RAHMATULLAYEV
O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat
instituti matbuot xizmati kotibi